

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XORIJIY FILOLOGIYA

til • adabiyot • ta’lim

ilmiy–uslubiy jurnal

Samarqand

4(85)/ 2022

**Ministry of Higher and Secondary Special
Education of the Republic of Uzbekistan**

SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

FOREIGN PHILOLOGY

Language • Literature • Education

Scientific-methodology journal

Samarkand



LIRIKADA RUH VA QALB TARBIYASI

*Xalova Maftuna Abdusalamovna,
SamDCHTI dotsenti*

Kalit soʻzlar: lirika, badiiy olam, axloqiy qadriyatlar, ilohiylik, ruhiy-psixologik holat, milliy ruh, lirik qahramon, tuygʻu, dunyoqarash, tahlil, talqin, munosabat.

Halima Ahmedova sheʼrlarini muayyan ruhiy holatning rangin manzaralari deyish mumkin. Undagi obrazning badiiy qiyofa, salmoqdorlik, originallik, emotsionallik kasb etishida *xayol, orzu, istak, armon, sogʻinch, tasavvur* kabi bir qator tushunchalar muhim rol oʻynagan. Unda deyarli koʻtarinki ritorik pafosni koʻrmaymiz. Poetikasining umumiy pafosini esa oʻychan va mahzun kayfiyat tashkil etadi. Albatta, bu koʻproq ijodkorning xarakteri, qiziqishlari, turmush tarzi, dunyoqarashi va psixologiyasi bilan bogʻliq juda murakkab jarayonlar mahsuli. Biroq, tushkun yo quvnoq kayfiyat va holatning baribir real hayotiy asoslari mavjud, qandaydir yaxshi xabar yoki koʻngilsiz voqea sodir boʻlgan boʻlsa, bordir, biroq, sheʼrda ana shu asos ochiq-oydin koʻzga tashlanmaydi, balki undan olingan taassurot, ruhiy-psixologik holatning turli-tuman manzaralari namoyon boʻladi. Halima Ahmedova talqiniga koʻra inson komillikka muhtoj. Maʼnan takomilga hamisha tashna. Haq ishq banda tabiatidagi kemptiklar oʻrnida maʼnaviyat chechaklarini koʻkartiradi; axloqiy qadriyatlar (*ishonch, mehr, muhabbat, oqibat, eʼtiqod va h.k.*) deb atalgan mevalarni undiradi. Shoir qadriyatning buyuk timsolini talqin qilarkan, ilohiylik iroda erki ruh erkinligi bilan tutash, bogʻliq holda anglashiladi. *“Bozorlar shovqini, mozor jimligi Dunyoni toʻldirib turgan bir chogʻda. Nega sen oʻzingni koʻrmaysan axir, Koʻngling ichidagi qop-qora dogʻda”*, - deydi lirik qahramon. Demak, banda tor-shaxsiy mayllaridan, xohish-istaklaridan baland koʻtarilgan taqdirdagina haqiqatni xolis izlashga, anglashga qodir. Negaki, u aldanchi tasavvur – tushunchalar bilan oʻzini chalgʻitib, ovutib yashashni xush koʻradi. Xom-xayollarini chala haqiqatlar tariqasida qoʻltiqlab yurish – banda feʼl-atvoridagi

ojizliklardan biri. Qolaversa, yana boshqa jihati ham bor. Xususan, oliy qadriyat deb atalgan mutlaq haqiqatning tusi, mazmuni mana shunday, deya aytishga qiynalasan. Boisi, burnidan narini koʻrishga ojiz nafs bandalari uchun qorin toʻygʻazishdan ortiq haqiqat boʻlmasligi mumkin. Bu – maʼnaviy qashshoqlik, ruhiy mutelikning koʻrinishlaridan biri, xolos. Insonning shaxslik darajasi *rost bilan yolgʻonni, badbinlik bilan nafosatni, doʻstlik bilan makr-riyoni* ajratib beruvchi, farqlay biluvchi bosh mezon.

Lirik qahramonning koʻngli xijil va gʻamnok. U *“qani men, qaydaman, yoʻqoldim qachon”* deydi kuyinib. U dilidagi Haq ishqini taniguncha, bilgunga qadar uzoq vaqt oʻzligidan oʻzini izlaydi. Shu boisdan ham koʻngil koʻzi uchun ufq darvozalari berk koʻrinadi. Qachondir navnihol tongning koʻzlari bugun qarigan, soʻnik va xira tuyuladi. U oʻzini fosh etishdan ojiz. Boisi, kulib turib yigʻlashni va aksincha, yigʻlab kulmoqlikni uddalay bilmaydi. Garchand, oʻzi tuproq esa-da, ruhi Haq ishqiga bogʻlangan. Zulmatni nurga aylantiruvchi, iymon kengligida xayol surguvchi poyiga sohib tashlangan garddek his qiladi oʻzini. Lirik qahramonning *“Yashil kundan qolgan gardman ehtimol”*, kabi iqrorlari fikrimizning isbotidir.

Halima Ahmedova va unga tengdosh shoirlar Asqar Mahkam, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, jumladan, Faxriyor ijodida ham mumtoz sheʼriyatning anʼanalariga vorisiylik kuchli. Bu ular sheʼriyatidagi *Ruh va Qalb tarbiyasi, oʻzlikni tinglash va anglash* kabi maʼrifat tushunchalar talqinida olamni va odamni tushunishda darvishona va rindona kayfiyatlarga moyillik tarzida namoyon boʻlayotgandek. A.Mahkam va A.Qutbiddin



ijodiga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarda bular xususida muayyan qarashlar bildirilgan.

Sharobdurman,

Ming yildirki hech kim ichmagan

Va hech kimsa tushida ham ko'rmagan sharob.

Goho shafaq qoni to'la ko'nglini qo'shib

Daryo kabi chayqatadi devona oftob.

O'z-o'zimni ichib bugun

mastonadirman

Va o'zgalar xayoliga solmasman nazar.

Ba'zan tunning etagiga to'kadi meni

Ermak qilib

Bedard shamol – xudobexabar.

Sharobdurman,

Do'zax ta'mi singari achchiq

Va jannatning yodi kabi juda ham shirin.

Achchiq-shirin ta'm ichida borligim bilan

Yo'qligimning unga payvand siri yashirin.

Shoiraning "Ishq" she'ridan keltirilgan yuqoridagi parcha ham fikrimizni dalillaydi. Ma'lumki, ishqni sharobga qiyoslash tasavvuf she'riyatida juda keng talqin etilgan masalalardan. Mazkur she'r ruhi ham shu tushuncha va qiyoslardan quvvat oladi. She'rda qo'llanilgan *sharob*, *mastona*, *do'zax*, *jannat*, *borligim*, *yo'qligim* kabi so'z va ramzlar ishq ilohiyga teran nazar solayotgan lirik qahramonning rindona kayfiyatidan darak beradi.

"Avvalo, shu narsani ta'kidlash joizki, - deb yozadi N.Rahimjonov, - Halima Ahmedova lirikasidagi badiiy-estetik tafakkur yangilanishi idrok va ifoda prinsiplarida namoyon bo'lmoqda. Xususan, shoiraning lirik qahramoni ko'nglidagi ilohiy nigoh bilan olam shevalariga, atrof-tevaragida kechayotgan voqelik jarayonlariga, odamlar fe'l-atvoriga nazar tashlaydi, estetik baholaydi, falsafiy mazmunning turfa holat va ko'rinishlarda jilvalanishi asosi shundan. Ya'ni, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni ko'rish, anglash, mohiyatini tushuntirish ustuvor. Bu borada haqiqat tuyg'usi ilohiy nigohning tajallisi sifatida zohir topadi" [4,3].

N.Rahimjonov ta'kidlab o'tgan ana shu sifat o'zgarishlari bois, an'anaviy lirikadan

ko'ra bu lirikada tushkun kayfiyatga, uning rang-barang tasvirlariga keng o'rin beriladi. Shoiraning juda ko'p she'rlari lirik shaxsning ilohga iltijosiday, munojotiday taassurot qoldiradi. Ushbu she'rning oxirgi misralarida bu xususiyat konkret tus oladi:

Bir yaproq shavqida, Allohim, aytgin,

Yam-yashil xayollar surdingmi?!

Ko'nglim kulbasini nigohing bilan,

Sog'inch sohillari aro qurdingmi?!

[3,120]

Sharq mumtoz she'riyatida tasavvuf talqinlari asosan aruz vaznida amalga oshirilgan. Jumladan, an'anaviy janrlar – *g'azal*, *doston*, *soqiynoma*, *muxammas* va boshqalar falsafasi tasavvufda qayta – qayta murojaat qilingan shakllardir. Ruboiy janriga ham bu borada ko'p murojaat qilingan. Biroq, yuqoridagi janrlar tasavvufiy g'oyalar talqini uchun kengroq maydon yaratgan, ya'ni hajman salmoqdorlik nuqtayi nazaridan muhim o'rin tutgan. Zamonaviy she'riyatimizda aruzga ko'p murojaat qilinmayapti. Bugungi kunda barmoq vazni yetakchiligini kuzatamiz. Shu bois ijodkorlar, jumladan, H.Ahmedova ham mumtoz mohiyatni barmoq shakllarida, uning qo'shma vaznlarida ifoda etmoqdaki, uning aksariyat to'plamlari shundan dalolat berayapti.

Ko'zimda ingragay tunlar,

Ajaldanmu yovuq unlar.

Ketarkan yor kabi kunlar,

Ko'nglim mayxona istaydi.

Rafiqim bemurodim g'am,

Dilimni yig'lagan shabnam,

O'charkan jon aro bir sham,

Ko'ngil mayxona istaydi.

Yaratgan, ne edi zoring,

Qani g'unchang, qani xoring,

Tugarmu ko'hna bozoring?

Ko'ngil mayxona istaydi.

Mazkur she'rni tasavvufiy dunyoqarashga mansubligini ta'kidlayotgan birgina "Ko'ngil mayxona istaydi" satrigina emas. Umuman, she'rning butun pafosidan rindona she'riyatning nafasi ufurib turibdi.

Darhaqiqat, "Qissasi Rabg'uziy"da rivoyat qilinishicha, odamning tuprog'i yaratilgach, uning ustida qirq yil yomg'ir yoqqan ekan. Shuning o'ttiz to'qqiz yili qayg'u yomg'iri, bir yili shodlik yomg'iri



bo'lgan. Ehtimolki, shuning uchundir insonning hayotda shodligidan ko'ra qayg'usi ko'proq, xotirjamligidan ko'ra bezovtaligi ko'p. Umuman sharq she'riy falsafasi hayotni shunday talqin etadi. Bu mumtoz mohiyat ruhi H.Ahmedova she'riyatida bo'y ko'rsatayotgani mutlaqo tasodif emas, balki adabiy an'analarning yangicha shaklda namoyon bo'layotganidir.

H.Ahmedovaning “Tashbeh” to'plamidagi she'rlarida miskinlik ko'p uchrashini alohida ta'kidlamog kerak:

Goh zaminda yurdim, gohi osmonda,
Ba'zan daryo bo'lib beorom qalqdim.
Tuyg'ular ichinda sarson kezganda,
Mening kimligimni eslatding, xalqim.
Miskin hislar bilan chalg'isam, kechir,
Netay, majnunzoda bo'lsa bu qalbm.
Havo, suv, alanga, tuproqman garchi –
Men sensiz hech kimman, onajon

xalqim!

O'tgan asrning 50-yillarida Anna Axmatova, Zulfiya kabi qator shoiralarning ijodida pessemistik, tushkun kayfiyatdagi she'rlar uchrashi juda qattiq tanqid ostiga olingan edi.

Ma'lum davrlarda she'rlari chop etilmay qolgan, eri ham, o'g'li ham qamalgan Anna Axmatova boshqacha she'rlar yoza olarmidi?! Albatta, yo'q. Juda ko'plarda bo'lgani kabi Zulfiya oilasida bo'lgan talofatlar uning ijodida ham xazin she'rlar yaratilishiga sabab bo'lganligi rostki, shoironing hayotining so'nggi yillarida yozgan “Xotiram siniqlari” dostoni o'sha alamli va armonli yillar jarohatining badiiy solnomasi edi. Zamon o'zgardi, shunga yarasha adabiy-estetik qarashlarimizda ham

o'zgarish va yangilanishlar bo'lishi tabiiy. Shunday ekan, bugun ham “faloncha shoir tushkun yozadi”,- deya hukm chiqarish kulgili bo'ladi. Umuman shoirlar, jumladan, H.Ahmedova she'riyatidagi tushkun yoki hazin ohang badbinlik ifodasi emas. Tasavvuf adabiyotida, jumladan, bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy she'riyatida ham bunday hazin ohanglar ozmuncha emas. Hazin, mahzun she'rlarga azaldan ruh va qalbning tarbiyachisi sifatida qarashgan. Bu ertangi kunni yorug', olam va odamni yagona bir garmoniyada ko'rish istagidan to'g'ilgan ma'naviy-ma'rifiy vosita desak, balki to'g'ridir.

Saning ishqing bilan bo'ldim rivoyat,
Boshimga bu ko'ngil keltirdi ofat.
Ishqning mayi birla bir jom tutibsan,
Manim maxmurligim senga malomat.

Har zarra qatida sohirmidursan,
O'n sakkiz ming olam aylar hikoyat.
Shamollar sabrini yemiradursan
Kipriging uchida qurib imorat.

Kel-ey, dil qonidan totib ko'r sen ham,
Ichmasang qiyomat, ichsang qiyomat...
[3,71]

Mazkur satrlar Mashrabning isyonkor she'riyatini yodga soladi. Mashrabning ruhiy olamidan ogoh bo'lmagan, u mansub ta'limotdan bexabar shoirning bunday satrlarni yozishi mumkin emasligi o'z-o'zidan ayon. Shu bois H.Ahmedova she'riyati tadqiqiga mumtoz she'riyatning vorisi sifatida yondashish o'zining aniq ilmiy-nazariy xulosa va natijalarini berishi tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адабиёт назарияси. Адабий асар. I –том. (М.К.Нурмухамедов таҳрири остида). - Т.:1978. – Б.414.
2. Алиевой С. Мир глазами женщины. Заметки на полях “женской” прозы.// Литературная Россия, 1984 йил, 9 марта, № 11, С.11; 16 марта, № 12, С.8-9.
3. Ахмедова Х.Ташбех. Шеърлар.-Т.: Akademnashr, 2017. - Б. 262.
4. Раҳимжонов Н. “Бадий кашфиётлар тонги”. Ҳалима Аҳмедова. Яшил. Сўз боши. Т.: Ўзбекистон, 2016, 3-б.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -Т.: Akademnashr. - Б. 480.
6. Шукуров Н.ва бошқалар. Адабиётшуносликка кириш. -Т.: “Ўқитувчи”, 1984. –Б.269.
7. Иброҳим Ҳаққул. Этикад ва ижод. -Т.: “Фан” нашриёти, 2007. – Б. 247.



Халова М. “Воспитание души и сердца в лирике”. В статье представлена информация о художественном мире Халимы Ахмедовой. Анализируются лирические стихи, характерные для восточной классической поэзии поэта, и выражается реакция. В результате анализа доказано, что подход к поэзии Х.Ахмедовой как к наследнице классической поэзии даст свои точные научно-теоретические выводы и результаты.

Khalova M. “Nurture of spirit and soul in lyrics”. The article provides information about the artistic world of Halima Akhmedova. Lyrical verses characteristic of the poet's oriental classical poetry is analyzed and a reaction is expressed. As a result of the analysis, it has been proven that the approach to H. Akhmedova's poetry as a successor of classical poetry will give its precise scientific and theoretical conclusions and results.